

BO'LAJAK TARBIYACHILARDA AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TA'LIM JARAYONINI LOYIHALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH – KASBIY PEDAGOGIK ZARURIYAT SIFATIDA

Bayzakova Maftuna Abulqosim qizi

*Abdulla Qodiriy nomidagi JDPU Pedagogika
ta'limi nazariyasi kafedrasi tayanch doktranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak tarbiyachilarda akmeologik yondashuv asosida ta'lim jarayonini loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish -kasbiy pedagogoik zaruriyat sifatida haqida fikrlar bayon qilingan.

Аннотация: В данной статье высказываются идеи о развитии у будущих учителей умений проектирования образовательного процесса на основе акмеологического подхода как профессиональной педагогической необходимости.

Annotation: In this article, ideas are expressed about the development of the skills of designing the educational process based on the acmeological approach in future teachers as a professional pedagogical necessity.

Kalit so'zlar: akmeologiya, bo'lajak tarbiyachi, yondashuv, ta'lim, jarayon, loyiha, ko'nikma, rivojlantirish, kasbiy-pedagogika, fikr.

Ключевые слова: акмеология, будущий педагог, подход, образование, процесс, проект, умение, развитие, профессионально-педагогика, мысль.

Bugungi kunda ta'lim mazmuni va o'qitish metodlarini takomillashtirishga oid talaygina fikrlar, ilmiy yondashuvlar o'rtaga tashlanmoqda. Yuqori sifat va samaradorlikka erishish imkonini beradigan o'qitish shakllari va metodlarini takomillashtirish, bola shaxsini shakllantirishga oid falsafiy, sotsiologik, psixologik, pedagogik bilimlarni uyg'unlashtirish zaruriyati kuchaymoqda.

Oliy pedagogik ta'lim mazmunini tahlil qilish shuni ko'rsatmoqdaki, dasturlar, o'quv-metodik majmualar mazmunida eskirib qolgan tushunchalar, tahlillar, qoidalar va g'aliz talqinlar uchraydi.

Ta'lim sifati masalasi o'tgan XX asrning oxirlarida V.M.Bexterev [56], I.A.Ilyin [116], R.G.Safarova [254], Sh.Qurbanov [155], E.Seytxalilov [156]lar tomonidan o'rganila boshlandi. Mazkur tadqiqotchilarning ishlarida yoshlarni barkamol shaxs sifatida shakllantirish, ularni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ta'lim mazmunining tutgan o'rni va mohiyatini ilmiy jihatdan asoslagan holda ochib berilgan. Mutaxassislar talaba-yoshlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga yo'naltirilgan ta'lim mazmuni va sifatini takomillashtirish, ularning ongiga madaniy boyliklarni singdirishga alohida e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlaganlar.

Ta'lim sifatini ta'minlash uchun o'quv jarayoni shaxsni intellektual, ma'naviy-axloqiy va kasbiy jihatdan rivojlantirishning chuqurlashtirilgan tizimi sifatida namoyon bo'lishi lozimligini tajribalar yaqqol ko'rsatmoqda.

Oliy pedagogik ta'limning mazmunini akmeologik yondashuv asosida modernizatsiyalashdan ko'zlanadigan asosiy maqsad jarayon sub'ektlarining pedagogik tafakkurini rivojlantirishdan iborat. Bu ta'lim oluvchilarining kasbiy faoliyatning bir cho'qqisidan ikkinchisiga qarab harakatlanishlari, etuklikning turli darajalarida mahorat cho'qqisiga erishishlari, sog'lom fikrlashlari va ijodiy kasbiy faoliyat ko'rsatish tajribasini egallashlari uchun muhim hisoblanadi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayoni sub'ektlarining pedagogik tafakkurini akmeologik yondashuv asosida shakllantirishda quyidagilar muhim ahamiyatga ega: to'laqonli rivojlangan shaxs va ijtimoiy faoliyat sub'ekti sifatida oliy pedagogik ta'lim jarayoni sub'ektlarining o'ziga xosligini o'rganish, ularda muvaffaqiyat qozonish mayllarini hosil qilish va rivojlantirish, intellektual hamda ijodiy quvvatlarini ro'yobga chiqarish uchun qulay pedagogik sharoit yaratish, ularning yuqori natijalarga erishishga bo'lgan intilishlarini rag'batlantirish tizimini ishlab chiqish hamda ijodiy yaratuvchilik faoliyatlarini tashkil etish, integrallashgan mezonlar asosida ta'lim sifatini baholash mexanizmlari, oliy pedagogik ta'limning asosiy maqsadiga erishish strategiyasini ishlab chiqish, ta'lim oluvchilarining kasbiy madaniyati va ma'naviyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish kabilar.

Mazkur muammolarni muvaffaqiyatlil hal etish uchun bo'lajak tarbiyachilarda pedagogik tafakkurni shakllantirish va uni muntazam rivojlantirib borish talab etiladi. Jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy jihatdan rivojlantirish sharoitida ushbu masala muhim ahamiyatga ega. Buning uchun oliy pedagogik ta'lim jarayoni sub'ektlarida bilimlarni mustaqil o'zlashtirish va turli pedagogik vaziyatlarda ularidan mohirona foydalanish ko'nikmasini hosil qilish talab etiladi. Ta'lim jarayoni sub'ektlarida pedagogik tafakkurni rivojlantirish orqali o'zlashtirilgan bilimlarning mustahkamligi ta'minlanadi, aqliy mehnat madaniyati, pedagogik faoliyatni amalga oshirish mayllari shakllantiriladi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayoni sub'ektlarining pedagogik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish bevosita ta'lim mazmuni yordamida amalga oshiriladi. Shuningdek, ta'lim oluvchilar bilan professor-tarbiyachilar orasidagi muloqot uslubi, ularga o'quv materiallarini taqdim etishni tashkillashtirish usullari ta'lim oluvchilarining o'quv-biluv faoliyati xarakteriga bevosita bog'liq. Oliy pedagogik ta'lim natijalari sifatini baholash tizimi ham kasbiy pedagogik tafakkurning taraqqiyotida muhim o'rinn egallaydi.

Akmeologiyaning ilmiy asosini insonning individ, shaxs va o'z hayotiy faoliyatining sub'ekti sifatida rivojlanishiga oid bilimlar majmui tashkil qiladi.

Akmeologik yondashuvar doirasiga quyidagilar kiradi:

- rivojlanayotgan insonning yaxlit hodisa sifatida ob'ektiv borliq bilan o'zaro aloqasi va munosabatlarini o'rganish;

- har bir ta'limgan oluvchining shaxsiy-kasbiy yuksaklikka intilishi, o'z shaxsiy-kasbiy sifatlarini takomillashtirishga erishishi, muvaffaqiyat qozonishi, etuklik va madaniy saviyasini yuksaltirishi va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga asoslangan holda o'z-o'zini rivojlantirishi natijasida istiqboldagi faoliyatining sifatini ta'minlash;

- bo'lajak tarbiyachilarning qiziqarli va mahsuldor yaratuvchilik faoliyatlarini tashkil etish, har bir ta'limgan oluvchining layoqatlarini e'tirof etish, jamoa a'zolari tomonidan ularning muvaffaqiyatlarini tan olish, to'laqonlilik va o'z ehtiyojlarini qondira olish hisiga ega bo'lish, ijodiy guruhlar bilan hamkorlik qilish imkonini beradigan kommunikativ ko'nikmalar hamda ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish kabilalar.

Bo'lajak tarbiyachilarda akmeologik yondashuvga tayangan holda shaxsga yo'naltirilgan ta'limgan jarayonini loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoni quyidagilarni amalga oshirishni taqozo etadi:

- oliy pedagogik ta'limgan jarayoni sub'ektlarini kasbiy faoliyatga tayyorlash vazifalarini muvaffaqiyatli echish;

- oliy pedagogik ta'limgan jarayoni sub'ektlarining o'z kasbiy faoliyatlarini ongli tarzda rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish;

- oliy pedagogik ta'limgan jarayoni sub'ektlarining salomatliklarini muhofaza qilish va mustahkamlash;

- oliy pedagogik ta'limgan jarayonini faoliyat ko'rsatish tartibidan ta'limgan oluvchilarni kasbiy jihatdan rivojlantirish funktsiyasini bajarishga o'tkazish;

- oliy pedagogik ta'limgan jarayoni barcha sub'ektlarining bilish mayllarini faollashtirish;

- kasbiy bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarni egallashni oliy pedagogik ta'limgan jarayoni sub'ektlarining ichki ehtiyojiga aylantirish;

- oliy pedagogik ta'limgan jarayoni sub'ektlarini ob'ektiv borliqni ijodiy tarzda qayta his etishga o'rgatish, shu asosda ularning estetik didi va kreativ faoliyatini rivojlantirish kabilalar.

Oliy pedagogik ta'limgan jarayonida akmeologik yondashuvni muvaffaqiyatli tatbiq qilish uchun ta'limgan jarayoni sub'ektlaridan barcha jarayonlarni o'zaro aloqadorlikda ko'rib chiqish layoqatiga ega bo'lish talab etiladi. Muammolarni ko'ra olish, ularni echish yo'llarini izlash, harakat natijalarini tahlil qilish layoqatiga ega bo'lish oliy pedagogik ta'limgan jarayoni sub'ektlari uchun muhim hisoblanadi. Buning uchun ta'limgan jarayoni sub'ektlari o'zlarini erishgan nuqtada to'xtab qolmasliklari, muntazam rivojlanish sari intilishlari lozim. Shunga ko'ra, akmeologik yondashuvning asosiy maqsadi oliy pedagogik ta'limgan jarayoni sub'ektlarini muntazam rivojlantirish, bo'lajak mutaxassislarining ijtimoiy etukliklari, shaxsiy-kasbiy jihatdan o'z mavqelarini aniqlashga tayyorliklarini ta'minlashdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda

zamonaviy oliy pedagogik ta'lismuhitida o'quv jarayoni akmeologik yondashuv bilan boyitilishi lozim. Bu jarayonda bo'lajak mutaxassis rivojlanish, takomillashish imkoniyatiga ega bo'ladi, kasbiy faoliyat cho'qqisi sari intiladi.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, malakali pedagog mutaxassislarni tayyorlash tizimini akmeologik yondashuv asosida tashkil etish uchun, birinchi navbatda, oliy pedagogik ta'lismazmunini akmeologik yondashuv asosida modernizatsiyalash parametrlarini aniqlash hamda shu asosda o'quv-metodik majmular mazmunini qayta qurish, bunda yangi pedagogik yondashuvlar, yo'nalishlar, paradigmalarning o'quv-metodik majmular mazmunida keng o'rinni olishiga erishish alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Bunda oliy pedagogik ta'lismazmunini ta'limga oluvchilar shaxsiga yo'naltirish alohida ahamiyatga ega. Chunki pedagogik faoliyatni akmeologik yondashuv asosida shakllantirish uchun, birinchi navbatda, mutaxassislarning pedagogik tafakkuri va kasbiy kompetentsiyalarini rivojlanish zarur hisoblanadi. Pedagogik bilimlarni o'zlashtirish uchun, dastlab, mazkur maqsadga yo'naltirilgan jarayonning mazmuni, shakllari, metodlarini yangilash talab etiladi. Shu asosda o'quv jarayonini muvaffaqiyatli tarzda mustaqil bilim olish jarayoniga aylantirish, bunda akmeologik yondashuvning ustuvor o'rinni egallashini ta'minlash mumkin.

Bo'lajak tarbiyachilar akmeologik yondashuv asosida ta'limga jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishlari uchun ularni oliy pedagogik ta'limga jarayonidayoq mazkur faoliyatga tayyorlash talab qilinmoqda. Tarbiyachilar shaxsga yo'naltirilgan ta'limga jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishlari uchun, avvalombor, bu jarayonni maqsadga muvofiq tarzda loyihalashtirish tajribasiga ega bo'lislari kerak. Buning uchun ular shaxsga yo'naltirilgan ta'limga maqsadi, vazifalari, bu jarayonda o'quv vositalarining mazmuni va xarakterini yaxshi bilishlari lozim. Bola shaxsiga yo'naltirilgan o'quv jarayonini samarali loyihalash tajribasini o'zlashtirish uchun bo'lajak tarbiyachilar dastlab uning mezonlarini yaxshi bilishlari kerak.

Bugungi kunda yangicha kasbiy mahoratga ega bo'lgan tarbiyachilarini tayyorlash vazifasini hal etish zaruriyati tug'ilmoqda. Chunki tarbiyachi o'z pedagogik faoliyati jarayonida har bir bolaga alohida shaxs sifatida yondashib uning intellektual, ma'naviy-axloqiy hamda jismoniy rivojlanishini ta'minlay olishi kerak. Buning uchun u ta'limga tarbiya jarayonini sinfdagi har bir bolaning imkoniyatlarini hisobga olgan holda loyihalashtirish va tashkil etish mahoratiga ega bo'lisi lozim.

Bugungi kunda oliy pedagogik ta'limga jarayoni sub'ektlarini yangi bilimlarni egallashga yo'naltirish, ularda tashabbuskorlikni hosil qilish, pedagogik tafakkurni rivojlanishiga, o'quv hamda ilmiy-pedagogik faoliyatni o'zaro uyg'unlashtirishga xizmat qiladigan o'quv topshiriqlari, mashg'ulot turlarini loyihalash ehtiyoji kuchaymoqda.

Taqdim etiladigan yangi bilimlar oliy pedagogik ta'lim jarayoni sub'ektlarining o'z pedagogik faoliyatlarini mustaqil boshqarish, uni mustaqil tarzda tashkil etish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi kerak. Ushbu imkoniyatlardan qulay tarzda foydalanish oliy pedagogik ta'lim jarayoni sub'ektlariga taqdim etiladigan bilimlar ko'lамини kengaytirishni taqozo qiladi. Oliy pedagogik ta'lim jarayoni sub'ektlarida pedagogikaning ko'plab xususiy tarmoqlari va sohalari haqida bilimlarni hosil qilish, ularning ilmiy dunyoqarashi va tasavvurini kengaytirish istiqboldagi pedagogik faoliyat mazmunini boyitishga xizmat qiladi.

Ta'lim oluvchilarda pedagogik tafakkurni rivojlantirishning quyidagi yo'llarini taklif qilish mumkin:

- oliy pedagogik ta'lim jarayonida muammoli o'qitish va interfaol ta'lim metodlaridan keng foydalanish;
- oliy pedagogik ta'lim jarayonida individual, guruhli va jamoaviy o'qitish shakllarini samarali qo'llash;
- oliy pedagogik ta'lim jarayoni sub'ektlarini ilmiy tadqiqot va loyiha chilik faoliyatining turli shakllariga jalb etish;
- oliy pedagogik ta'lim jarayoni sub'ektlarini turli tanlovlari, olimpiadalar, tanlov asosidagi grantlarda faol ishtirok etishlarini ta'minlash kabilari.

Oliy pedagogik ta'lim jarayoni sub'ektlarida akmeologik yondashuv asosida pedagogik tafakkurni muvaffaqiyatli rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim mazmunini modernizatsiyalashda quyidagilarni hisobga olish talab etiladi:

- oliy pedagogik ta'lim jarayoni sub'ektlarining real o'quv imkoniyatlarini aniqlash maqsadida akmeologik xarakterdagi tashxislash tadbirlarini o'tkazish, shu asosda ularning o'quv imkoniyatlari, kasbiy mayllari, qiziqishlari, qadriyatlari, istiqboldagi pedagogik faoliyatlarida qo'llaniladigan bilimlar ko'lамиni aniqlash;
- o'quv jarayonida pedagogik tafakkurning samarali rivojlanishiga imkon beradigan qulay pedagogik vositalarni tanlash;
- o'qitishning interfaol metodlari va tashkiliy shakllariga keng o'rinn ajratish asosida oliy pedagogik ta'lim jarayoni sub'ektlarining shaxsiy-kasbiy mavqelarini mustahkamlash uchun qulay o'quv vaziyatlarini tashkil etishni tazarda tutish;
- pedagogik tafakkurning rivojlanishida oliy pedagogik ta'lim jarayoni sub'ektlarining topshiriqlarning turli shakllari, manbalar hamda ma'ruza matnlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish kabilar shular jumlasidandir.

Akmeologik mavqe pedagoglarning integrallashgan sifatlari ko'rsatkichi bo'lib, o'z-o'zini takomillashtirishining mahsuli hisoblanadi. Oliy pedagogik ta'limning yangilangan mazmunigina tarbiyachining akmeologik modelini yaratishga xizmat qila oladi. Bu esa, o'z navbatida, oliy pedagogik ta'lim sifatini ta'minlash imkonini beradigan yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogik tafakkurning akmeologik yo'sinda rivojlanishi oliy pedagogik ta'lim jarayoni sub'ektlarining mutaxassis sifatida yaxlit tarzda kasbiy yuksalishini anglatadi. Bu jarayonda tarbiyachi shaxsiy, ma'naviy, kasbiy jihatdan mustaqil rivojlanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Tarbiyachida kasbiy jihatdan o'z-o'zini anglashning rivojlanishi pedagogik faoliyat refleksiyasi va kasbiy xulq-atvorning takomillashuviga olib keladi. Bularning barchasi bevosita oliy pedagogik ta'limning akmeologik yondashuvga tayangan yangi mazmuniga asoslangan modelini joriy etish bilan bog'liq.

Pedagogik-psixologik jihatdan dinamik tarzda o'zgarib boruvchi kasbiy rivojlanish jarayonining tavsifi bo'lajak tarbiyachilarning ruhiy, psixofiziologik taraqqiyotidagi bo'shliqlarni aniqlash, shu asosda ularga pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimi orqali ijobjiy ta'sir ko'rsatish imkonini beradi. Bu esa ularning kasbiy rivojlanish tizimini akmeologik yondashuv asosida tashkil etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shaxsga yo'naltirilgan oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak tarbiyachilarni pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida Qonun.Toshkent.sh,2019 yil 16 dekabr, O'RQ-595-son
2. Ma'murov B.B.Bo'lajak o'qtuvchilarda akmeologik yondashuv asosida ta'lim jarayonini loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish tizimi. Monografiya – T: Fan va texnologiya, 2017-128b.
3. Urazova M.B.Bo'lajak kasbiy ta'lim pedagogini loyihalash faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish. Doktdiss.avtoref.-T: 2015.-79b.
4. Pedagogika atamalar lug'ati// tuzuvchilar : jamoa . - T: Fan, 2008.-B.144.